

"Jamoatchilik kengashining faoliyati samaradorligini baholash mezonlari"
(8-indikator)

	Baholash mezonlari	Ballar	Mas’ul bo‘linmalar
Rasmiy veb-saytda jamoatchilik kengashi haqidagi ma’lumotlarning joylashtirilishi			
1.	jamoatchilik kengashiga bag‘ishlangan alohida sahifa tashkil etilib, kengash faoliyati haqidagi (jamoatchilik kengashining yig‘ilishlari va kun tartibidagi masalalar, tasdiqlangan a’zolari ro‘yxati, telefon raqami, pochta va elektron manzillari, ijtimoiy messenjerlardagi rasmiy sahifalari, davlat organi rahbarining davriy hisobotlari eshituvi hamda kengash faoliyati to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan maqola va chiqishlarning yoritib borilishi) ma’lumotlar e’lon qilinsa	2	Axborot texnologiyalari departamenti; Marketing departamenti; Kasaba uyushmasi ko‘mitasi
	ma’lumotlar to‘liq bo‘lmagan, alohida sahifadan boshqa manzilda yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e’lon qilinsa	1	
	ma’lumotlar e’lon qilinmasa	0	
Jamoatchilik kengashining tashkiliy-huquqiy asoslari ishlab chiqilganligi hamda belgilangan tartibda e’lon qilinganligi			
2.	jamoatchilik kengashining tasdiqlangan nizomi, amalga oshirilishi rejalashtirilgan vazifalar bo‘yicha har yillik chora-tadbirlar rejasi va tasdiqlangan reja asosida o‘tkazilishi kutilayotgan yig‘ilishlar jadvali e’lon qilinsa	2	Kasaba uyushmasi ko‘mitasi
	hujjatlar to‘liq bo‘lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e’lon qilinsa	1	
	hujjatlar e’lon qilinmasa	0	
Jamoatchilik kengashi tarkibini shakllantirish bo‘yicha belgilangan talablarning bajarilish darajasi			
3.	jamoatchilik kengashi tarkibini shakllantirishga oid talablarga (tarkibning kamida 50 foizini nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari tashkil etishi va Jamoatchilik palatasi bilan kelishilganligi haqidagi ma’lumotlar kiritilgan davlat organi rahbarining qarori, a’zolarining soni 15 nafardan kam bo‘lmashligi, tarkibida ishchi (ekspert) guruhlar tashkil etilganligi) rioya etilishi va bu haqdagi ma’lumotlar (hujjatlar) ochiq e’lon qilinsa	2	Kasaba uyushmasi ko‘mitasi
	hujjatlar (ma’lumotlar) to‘liq bo‘lmagan yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e’lon qilinsa	1	
	hujjatlar (ma’lumotlar) e’lon qilinmasa	0	

Jamoatchilik kengashining ochiqlikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat organi faoliyatini takomillashtirishdagi ishtiroki			
4.	kengashning ochiqlikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat organi faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirgan chora-tadbirlar haqidagi (ochiqlik, shaffoflik va jamoatchilik oldida hisobdorlikni ta'minlash, davlat dasturlari hamda boshqa hujjatlar bo'yicha berilgan vazifalarning ijrosiga oid hisobotlarni eshitish, xorijiy mamlakatlardagi analogik organlar tajribasi o'rganilib, ichki hujjatlar va faoliyatni takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqilganligi) tahliliy ma'lumotlar muntazam e'lon qilinsa	2	Kasaba uyushmasi ko'mitasi
	ma'lumotlar to'liq bo'lmagan, alohida sahifadan boshqa manzilda yoki yangilab borish muddatlariga rioya qilinmagan holda e'lon qilinsa	1	
	ma'lumotlar e'lon qilinmasa	0	
Mezonlar soni		4	
Umumiy ball		8	